

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

XO‘JANOV NURIDDIN ZIYADULLAYEVICH

**ILK O‘RTA ASRLAR SUG‘D VA USTRUSHONANING
IJTIMOIY-SIYOSIY VA ETNOMADANIY ALOQALARI**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Xo‘janov Nuriddin Ziyadullayevich

Ilk o‘rta asrlar Sug‘d va Ustrushonaning ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy aloqalari 3

Хужанов Нуриддин Зиёдуллаевич

Социально-политические и этнокультурные связи Согда и Уструшаны в раннем средневековье 25

Xujanov Nuriddin Ziyadullayevich

Social-political and ethno-cultural relations in Sogd and Ustrushana in the early Middle Ages 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 53

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

XO‘JANOV NURIDDIN ZIYADULLAYEVICH

**ILK O‘RTA ASRLAR SUG‘D VA USTRUSHONANING
IJTIMOIY-SIYOSIY VA ETNOMADANIY ALOQALARI**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2023.2.PhD/Tar1480 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNET» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

G‘oyibov Bobir Sobirovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Saidov Ilxom Muxiddinovich
tarix fanlari doktori, professor

Toshbayev Furqat Eshbayevich
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «__»_____ soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (99866) 239-11-40, (99866) 239-18-92; Faks: (99866) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy). Tel.: (99866) 239-11-40, (99866) 239-18-92; faks: (99866) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «__»_____ kunida tarqatildi.
(2024-yil «__»_____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

B.E. Ergashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi t.f.d., professor

F.A. Narmanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, (PhD)

G.B. Normurodova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar
raisi, t.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda har bir xalqning madaniy jihatdan taraqqiy etishida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy aloqalari hamda o‘zaro ta’sirlar muhim o‘rin tutadi. Barcha sivilizatsiyalar o‘z qobig‘ida emas, balki, muayyan aloqalar va tashqi ta’sirlar natijasida shakllangan. Ayniqsa, mulkiy munosabatlar jadal o‘zgarishlarga uchragan ilk o‘rta asrlar (V-VIII asrlar) davrida jahon xalqlari qatorida bugungi O‘zbekiston hududida istiqomat qilgan etnoslarning ham chuqur aloqalarga kirishganliklari ko‘zga yaqqol tashlanmoqda. Bu munosabatlar uzoq tarixiy ildizga ega bo‘lib, ularni mintaqaning jahon xalqlari bilan olib borayotgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarida, qadim tarix va turli voqeliklar bilan bog‘liq bo‘lgan o‘tmishida ham ko‘rish mumkin.

Hozirgi davrda Markaziy Osiyo mintaqasida tashkil topgan davlat va siyosiy uyushmalarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti hamda uning tashqi aloqalarini o‘rganishga, qiziqish yildan-yilga ortib bormoqda. Shu munosabat bilan, So‘g‘d va Ustrushonaning tarixiy-madaniy rivojlanish masalalari maxsus loyihalar sifatida xorijning bir qator etakchi ilmiy markazlari YUNESKOning MOTXI, Oksford universiteti (Angliya), Rossiya FA va Fransiyadagi tadqiqot markazlarida izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, So‘g‘d konfederatsiyasining Ustrushona bilan ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy aloqalarida yuz bergan o‘zgarishlarni tadqiq etish tarixiy voqelikni mintaqa darajasida ko‘rish va har tomonlama baholash imkonini beradi, bu esa mavzuning xalqaro miqyosda dolzarbligini ko‘rsatadi.

Yangi O‘zbekistonda hayotning barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirila boshlandi, xalqimiz tarixi va boy merosini qayta tiklash, barcha davrlarga xos bo‘lgan manbalarni izchil o‘rganish, tahlil qilish va targ‘ib etish davlatimiz siyosatining asosiy vazifalaridan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir”¹. Shu nuqtai nazardan, yurtimiz hududida xalqaro aloqalarning shakllanishini, ayniqsa, keyingi davrdagi jamiyat taraqqiyoti uchun asos bo‘lgan bugungi O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan Sug‘dning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va etnomadaniy aloqalarini tarixiy jihatdan tadqiq qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг 2016 йили 18-19 октябрь кунлари Тошкентда бўлиб ўтган Ислом ҳамкорлик ташкилоти (ИХТ) Ташқи ишлар вазирлари кенгаши (ТИВК) 43-сессиясининг очилиш маросимидаги нуткидан.

O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, shuningdek “O‘zbekistonda 2021-2030-yillarda tarix fanini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi” qaror loyihasi va sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ilk o‘rta asrlar Sug‘d va Ustrushona aloqalariga bag‘ishlangan maxsus tadqiqot ishi yaratilmagan bo‘lib, tadqiqotning ushbu muammoga bag‘ishlangan tarixshunoslik qismida bu boradagi masalalar tadqiq etilgan².

Dissertatsiya mavzusining ish bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining ATD-1 “O‘zbekiston hududida davlatchilik tarixi: an‘analar va transformatsion jarayonlar” (2021-2025-yy.) mavzusidagi tadqiqot mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Ilk o‘rta asrlar Sug‘d va Ustrushona ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy aloqalarining mohiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Sug‘d va Ustrushonaning ilk o‘rta asrlar davriga oid aloqalari tarixiga doir manbalarni tavsiflash;

ilk o‘rta asr Sug‘d va Ustrushona aloqalariga doir ilmiy adabiyotlar tahlilini amalga oshirish;

Sug‘d va Ustrushonaning Arab xalifaligi bosqini arafasidagi siyosiy jarayonlardagi aloqalarini ko‘rsatish;

ilk o‘rta asrlarda Sug‘d va Ustrushona aloqalarining numizmatik materiallarda aks etganligini aniqlash;

Sug‘d va Ustrushona aloqalarining moddiy madaniyat va ma’naviy-mafkurafiy hayotda aks etganligini ko‘rsatish;

Sug‘d va Ustrushona etnomadaniy aloqalarining toponimlar va onomastikada aks etishi tahlil qilish.

Tadqiqotning obykti sifatida Sug‘d va Ustrushona davlat uyushmalarining ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy aloqalari masalasi belgilangan.

Tadqiqotning predmetini Sug‘d va Ustrushona davlat uyushmalarining ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy aloqalarining tahlili tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiy taqqoslash, xronologik izchillik, sabab, jarayon va natija bog‘liqligi, tarixiy bilishning xolislik, tarixiylik hamda tizimlilik usullaridan foydalanilgan.

Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

² Mazkur masala dissertatsiyaning “Sug‘d va Ustrushona aloqalari tarixshunosligi” deb nomlangan birinchi bobning ikkinchi paragrafidan alohida tahlil qilingan.

Sug‘d va Ustrushona o‘rtasidagi aloqalarning ikkala mintaqa aholisining yagona tilda so‘zlashganligi (sug‘diy) va etnik mansubligi (sug‘diy va turkiy), hukmdorlar o‘rtasidagi sulolaviy yaqinliklar (Chakin Cho‘r bilga, Qora bug‘ra), davlat boshqaruvining mahkamachiligi (Mug‘ arxivi va Chilhujra hujjatlari), boshqaruv va unvonlar (afshin, cho‘r) tizimidagi o‘xshashliklarda o‘z aksini topganligi asoslab berilgan;

Arablar bosqini arafasi va bosqin jarayonlarida Sug‘d va Ustrushona davlat uyushmalarining ittifoqchi bo‘lganliklari, umumiy dushmanga qarshi birgalikda harakat olib borganliklari hamda ushbu ittifoqchilikning Turk xoqonligi himoyasi ostida xalifalikda sulola almashgan davr (750 yil)ga qadar davom etishiga turki bo‘lganligi (Mug‘ tog‘i sug‘diy (A-14) hujjatlari asosida) dalillangan;

Ilk o‘rta asrlar Sug‘d va Ustrushona o‘rtasidagi aloqalarining moddiy madaniyat (Afrosiyob, Panch, Bunjikat, Chilhujra, Shahrison xarobalari) va ma‘naviy-mafkurafiy (Shahrison va Kofirqal‘adagi ona bo‘ri tasviri, Panjikent va Bunjikat devoriy suratlaridagi diniy va maishiy hayotdagi o‘xshashliklar) hayotda, toponim (*kent, kat, kas, diz, gar, g‘ar, far, par* komponentli toponimlar)lar va onomastika (Qora-cho‘r – Xaraxurra, Shishpir (din tag‘ibotchisi, Chirdmish (Mitradan tarqalgan))da va etnomadaniyat hamda numizmatik materiallarda aks etganligi aniqlangan;

Ustrushona mulklarining (Ustravshan, Shavkat, Buttaman, Parg‘ar) Sug‘d savdo va hunarmandchilik markazlari (Maymurg‘, Panjikent, Kabudon, Fay, Ishtixon, Kushoniya) bilan hamkorlikda “Sug‘d savdo ittifoqi”ni tashkil etgani holda Xitoy bilan savdo aloqalarini olib borganligi, Ustrushonaning Xitoy bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalari Sug‘d, Farg‘ona va Chochga nisbatan birmuncha sust ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

ilk o‘rta asrlarda Sug‘d va Ustrushona o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar orqali Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiylik jihatdan umumiylikni asoslovchi tavsiyalar berilgan;

Sug‘d va Ustrushona mintaqalarida yashovchi sug‘diy va turkiyning ilk o‘rta asrlar davrida chuqur etnomadaniy aloqalarga kirishganligi, ushbu aloqalarning numizmatik materiallar, moddiy madaniyat, toponim hamda onomastik ma‘lumotlarda aks etganligi mintaqalar o‘rtasidagi aloqalarning qadim davrlarga oidligiga oid fikrlarni mustahkamlaydi;

Sug‘d va Ustrushona aloqalarida yagona tilga mansublik ikki mintaqa xalqlarining umumiy madaniyatga ega ekanligini asoslovchi omil ekanligi o‘sib kelayotgan yosh avlodning tarxiiy tafakkurini boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilk o‘rta asrlar Sug‘d va Ustrushona aloqalarini tadqiq etishda birlamchi manbalar hisoblangan sug‘diy manbalarning qiyosiy tahlili bilan asoslanadi. Bundan tashqari, dissertatsiya natijalari muammoni yoritishda foydalanilgan xitoy, arab, fors tillaridagi manbalar, numizmatik materiallarning ilmiy talqini asosida baholangan hamda olingan natijalarning amaliyotga joriy etilgani vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ilk oʻrta asrlarda Sugʻd va Ustrushona aloqalarining Markaziy Osiyo ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotidagi oʻrniga yozma manbalar va arxeologik materiallar asosida tahlil qilingan boʻlib, bu ilk oʻrta asrlar Sugʻd va Ustrushona tarixini davriy izchillikda, muammoviy yondashuv asosida oʻrganish imkonini beradi;

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati keltirilgan materiallar va xulosalar ilk oʻrta asrlarda Sugʻd va Ustrushonaga oid ilmiy tadqiqotlar olib borishda, oliy va oʻrta maxsus taʼlim tizimidagi siyosiy va diplomatiyaga oid fanlar boʻyicha maxsus kurslar tashkil etishda hamda ushbu oʻquv kurslaridan oʻquv qoʻllanma va darsliklar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Ilk oʻrta asrlar Sugʻd va Ustrushonaning ijtimoiy-siyosiy, etnomadaniy aloqalari” mavzusidagi tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi yuzasidan ilmiy izlanishlar natijalarining joriy qilinishi:

Sugʻd va Ustrushona oʻrtasidagi aloqalarning ikkala mintaqa aholisining yagona tilda soʻzlashganligi (sugʻdiy) va etnik mansubligi (sugʻdiy va turkiy), hukmdorlar oʻrtasidagi sulolaviy yaqinliklar (Chakin Choʻr bilga, Qora bugʻra), davlat boshqaruvining mahkamachiligi (Mugʻ arxivi va Chilhujra hujjatlari), boshqaruv va unvonlar (afshin, choʻr) tizimidagi oʻxshashliklarda oʻz aksini topganligi bilan bogʻliq maʼlumotlar Samarqand davlat universiteti tarix yoʻnalishi talabalari uchun “Samarqand tamadduni tarixi” oʻquv qoʻllanmasining (Samarqand, SamDU, 2022. – 195-bet) 1-2 mavzularida aks etgan (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2022 yil 1 noyabrda berilgan 10-4763 sonli maʼlumotnoma). Mazkur ilmiy natijalar Sugʻd va Ustrushona oʻrtasidagi tarixiy aloqalarning mintaqa xalqlari madaniyatiga taʼsirini koʻrsatishga hamda talabalarining ilk oʻrta asrlar davriga oid ilmiy bilimlarini oshirishga ham imkon bergan.

Arablar bosqini arafasi va bosqin jarayonlarida Sugʻd va Ustrushona davlat uyushmalarining ittifoqchi boʻlganliklari, umumiy dushmanga qarshi birgalikda harakat olib borganliklari hamda ushbu ittifoqchilikning Turk xoqonligi himoyasi ostida xalifalikda sulola almashgan davr (750 yil)ga qadar davom etishiga turtki boʻlganligi (Mugʻ togʻi sugʻdiy (A-14) hujjatlari asosida) bilan bogʻliq maʼlumotlar Samarqand davlat universiteti tarix yoʻnalishi talabalari uchun “Samarqand tamadduni tarixi” oʻquv qoʻllanmasining (Samarqand, SamDU, 2022. – 195-bet) 1-2 mavzularida aks etgan (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2022 yil 1 noyabrda berilgan 10-4763 sonli maʼlumotnoma). Mazkur ilmiy natijalar Arablar bosqini arafasi va bosqin jarayonlarida Sugʻd va Ustrushona davlat uyushmalarining ittifoqchi boʻlganliklari, umumiy dushmanga qarshi birgalikda harakat olib borganliklari koʻrsatishga hamda talabalarining ilk oʻrta asrlar davriga oid ilmiy bilimlarini oshirishga ham imkon bergan.

Ilk oʻrta asrlar Sugʻd va Ustrushona oʻrtasidagi aloqalarining moddiy madaniyat (Afrosiyob, Panch, Bunjikat, Chilhujra, Shahrison xarobalari) va maʼnaviy-mafkurafiy (Shahrison va Kofirqalʼadagi ona boʻri tasviri, Panjikent va

Bunjikat devoriy suratlaridagi diniy va maishiy hayotdagi o'xshashliklar) hayotda, toponim (*kent, kat, kas, diz, gar, g'ar, far, par* komponentli toponimlar)lar va onomastika (Qora-cho'r – Xaraxurra, Shishpir (din tag'ibotchisi, Chirdmish (Mitradan tarqalgan))da va etnomadaniyat hamda numizmatik materiallardan yozishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 2022 yil 4 fevraldagi 3/1255-255-son ma'lumotnomasi). Bu esa ilk o'rta asrlar Sug'd va Ustrushona aloqalarining moddiy madaniyat va ma'naviy-mafkurafiy holatini baholashga xizmat qilgan;

Ustrushona mulklarining (Ustravshan, Shavkat, Buttaman, Parg'ar) Sug'd savdo va hunarmandchilik markazlari (Maymurg', Panjikent, Kabudon, Fay, Ishtixon, Kushoniya) bilan hamkorlikda "Sug'd savdo ittifoqi"ni tashkil etgani holda Xitoy bilan savdo aloqalarini olib borganligi, Ustrushonaning Xitoy bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalari Sug'd, Farg'ona va Chochga nisbatan birmuncha sust ekanligi to'g'risidagi materiallardan foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 2022-yil 4-fevraldagi 3/1255-255-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy natijalar Sug'd va Ustrushona o'rtasidagi tarixiy aloqalarning mintaq xalqlari madaniyatiga ta'sirini ko'rsatishga hamda talabalarning ilk o'rta asrlar davriga oid ilmiy bilimlarini oshirishga ham imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta Respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusida jami 11 ta ish e'lon qilingan. Jumladan, tadqiqotning asosiy mazmuni, xulosa va natijalari O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilingan, davriy nashrlarda 6 ta, xususan, respublika miqyosidagi jurnallarda 4 ta, xalqaro nashrlarda 2 ta ilmiy maqolalarda aks etgan. Shuningdek, Respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda to'plamlarida 4 ta tezis va maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob va xulosa, foydalangan manba va adabiyotlar ro'yxati, shartli qisqartmalar va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 121 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilab olingan; tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan; olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi va aprobatsiyasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Ilk o'rta asrlar Sug'd va Ustrushona aloqalarining tarixshunosligi va manbashunosligi**" deb nomlanib, uning birinchi paragrafidan "*Ilk o'rta asrlarda Sug'd va Ustrushona aloqalari tarixiga doir manbalar tavsifi*" keltirilgan.

Ilk o'rta asrlar Sug'd va Ustrushona to'g'risida turli tillarda yozilgan o'nlab turkum manbalar bo'lishiga qaramasdan, ushbu ikki mintaq o'rtasida bevosita

aloqalar mavjudligi to'g'risidagi manbalar sanoqli hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Sug'd va Ustrushonaning bevosita aloqalariga doir ma'lumotlar at-Tabariy, Balazuriy, Al-Yoqubiy kabi arabiy, Xitoy yilnomalari, Mug' arxivi va Chilhujra kabi sug'diy manbalarda uchraydi.

Jumladan, Tabariy "Tarix" asarining 721-722 yillar voqealari bayoni sug'diylarning Xo'jandga ko'chish voqealariga bag'ishlangan. Ayniqsa, Ishtixon qo'zg'olonchilari rahnamosi Karzanch va uning jiyani Chalanjning Farg'ona hukmdori bilan aloqalari, ularning Xo'jandda qarorgoh qurganliklari va birgalikda xalifalikka qarshi kurashlari keng berilgan³.

Sug'd va Ustrushona aloqalari Arab xalifaligining Sug'd ixshidi bilan 712 yilda tuzilgan "Samarqand shartnomasi" orqali ham oydinlashishi mumkin⁴. "Samarqand shartnomasi"ida G'urak nisbasining "afshin" deya qayd etilishi⁵ uning Ustrushona hukmdorlari avlodlariga ishora bo'lishi mumkin. Al-Yoqubiyda ham Sug'd hukmdorlari افشين – *afshin* deb keltirilgan⁶. Lekin *afshin* unvoni sug'diy manbalarda uchramaydi⁷. Shunday ekan, uni sug'diy unvonlar bilan solishtirish qiyin. Ushbu unvon arabiy manbalarda Ustrushona hukmdorlarining unvoni sifatida qayd etilgan⁸. Unvonlarning ikkala mintaqada ham o'xshashliklarga ega ekanligi Sug'd va Ustrushona hukmdorlarining bog'liqliklarini kuchaytiradi.

Bu borada Mug' arxivida ham ba'zi ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, A-9 (qo'shni hokimliklardagi ahvol to'g'risida Devashtichga uning ayg'oqchisi yozgan xat) maktubida Arab xalifaligi bosqini arafasida bir-biriga chegaradosh bo'lgan Sug'd va Ustrushona aholisining kerakli vaqtda birlashishlari haqida gap borgan. Bu Mug' arxivining A-14 raqamli hujjat (Sug'd elchisi Fatufarnning Chochdan jo'natgan xati)dagi Ustrushona va Sug'd bilan bog'liq ma'lumotlarda aks etganligi bilan yanada oydinlashadi⁹.

Chilhujra (Qirq hujra) qal'asidan ham bu ikki o'lka madaniy aloqalar tarixining yaqinligini ko'rsatuvchi materiallar ham topilgan topilgan. Devoriy suratlarning chizilishi va mazmuni Panjikent va Afrosiyob devoriy suratlarida keltirilgan sahnalarga o'xshash holda tasvirlanganligi ham mintaqalarning madaniy aloqalar ta'siri va dunyoqarashlardagi mafkuraviy o'xshashlikdan darak beradi¹⁰.

Sug'd va Ustrushona aloqalariga doir ma'lumotlar xitoy yilnomalarida ham aks etgan. Xususan, yilnomalarda *An* (Buxoro), *Kan* (Samarqand), *Mi* (Maymurg'), *Shi* (Kesh) va boshqa bir qator "Xu o'lkalari / mamlakatlari"dan Xitoyga borib, bu mamlakatdagi bir necha shaharlarda o'z savdo manzilgohlarini barpo etganligi

³ История ат-Табари / Пер. с араб. В.И. Беляева с допол. О.Г. Большакова, А.Б. Халидова. – Ташкент: Фан, 1987. – С. 184-185.

⁴ Аҳмад ибн Йаҳйю ал-Балозурий. Футух ал-булдон. Хуросоннинг фатҳ этилиши / Сўз боши, араб тилидан тар., шарҳ., изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи Ш.С.Камолиддин. – Тошкент: ТошДШИ, 2017. – Б. 50-52.

⁵ Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. – Москва: Наука, 1970. – С. 208.

⁶ ал-Йакуби. Книга стран (Китаб ал-булдан) / Вступительная статья, перевод, комментарии и указатели Л.А.Семеново́й. – М.: Вост. лит., 2011. – С. 344.

⁷ Согдийские документы с горы Муг / Юридические документы и письма. Чтение, перевод и комментарии В.А.Лившица. – Вып. II. – Москва: ИВЛ, 1962. – С. 50. (Keyingi o'rinlarda СДГМ II).

⁸ Пардаев М.Х. Северо-западная Уструшана в эпоху раннего средневековья: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент: 1997. – С. 20.

⁹ СДГМ II. – С. 77-91

¹⁰ Негматов Н.Н. Уструшана // Средняя Азия в раннем средневековье / Археология. Под общей редакцией Б.А.Рыбакова. – Москва, 1999. – С. 114-116, 119, 121-123, 125-126.

haqida qaydlar uchraydi¹¹. Mazkur “Xu mamlakatlari”, ya’ni, buxorolik, samarqandlik, kushoniyalik, maymurg‘lik, keshlik savdogarlar ustrushonalik tujjorlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritib, Xitoyning bir necha shaharlarida, xususan, ushbu mamlakatning shimoli-g‘arbiy va g‘arbiy hududlarida, poytaxt Chanan hamda asl tarixiy Xitoyga g‘arbdan qo‘shni Gansu, Dunxuan o‘lkalarida va Sharqiy Turkistondagi Kumul, Turfon, Qorashahr, Kucha, Koshg‘ar, Xo‘tan singari voha hukmdorliklarida o‘z savdo manzillariga ega edilar¹².

Birinchi bobning “*Sug‘d va Ustrushona aloqalari tarixshunosligi*” nomli ikkinchi paragrafida muammoning tarixshunosligi tahlil qilingan.

Sug‘d va Ustrushona aloqalariga doir ilk ma’lumotlarni keltirgan V.Tomashek Sug‘d hukmdori G‘urakning kelib chiqishini Ustrushona bilan bog‘lagan bo‘lsa¹³, V.V.Bartold “Afshin” unvoni haqida keltirib, ushbu unvonning ikkala mintaqa boshqaruviga daxldorligini qayd etadi¹⁴. Fransuz sharqshunosi E.Shavann Sug‘d va Ustrushonaning o‘zaro siyosiy aloqalarga to‘xtalib o‘tgan¹⁵. Y.Markvart esa bu haqda yozib, Sug‘d va Ustrushonaning yagona til va yozuv o‘xshash jihatlariga e’tibor qaratgan¹⁶.

Arxeologik tadqiqotlarga ko‘ra, Samarqand Afrosiyobi xarobalaridan topilgan terrakotalar muammoga doir muhim ma’lumotlar beradi¹⁷. Chunki xuddi shunday terrakotalar Zomin shahridan 3 km sharqda joylashgan Segasari qishlog‘i yaqinidagi Mozortepadan ham topilgan. Terrakotalarning ichida qo‘lini ko‘ksiga qo‘ygan, kiygan kiyimlari, soch to‘g‘nagich va bilakuzuklari, yuz tuzilishi, soch qoplarni tuzilish namunalari (analoglari)ni Sug‘dda torilgan terrakotalarda ko‘rish mumkin¹⁸.

1943-1944 yillarda Ustrushonadagi Munchoqtepa yodgorligida yirik qazishma ishlari olib borildi. Tadqiqot ishlari Bekobod shahri yaqinidagi Farhod GESi qurilishi bilan chambarchas olib borilgan. Tadqiqotlar davomida ikkita qabristondan 28 qabrda dafn etilganlar ochilib o‘rganildi. Olingan ma’lumotlar ushbu hudud va unga qo‘shni mintaqa, xususan, Sug‘d aholisini dafn marosimlarida o‘xshashliklar haqida muhim xulosa beradi¹⁹. Shuningdek, 1950-yillarda sug‘d-tojik ekspeditsiyasi qadimgi Bunjikat shahri qoldiqlari – Shahrstonda devoriy rasmlarni ochishgan bo‘lsa, 1962 yilda ilk bor sug‘diy yozuvli hujjat topib o‘rganilgan²⁰. Har ikkala holatda ham Ustrushona va Sug‘d-ning o‘zaro madaniy aloqalarning ilk o‘rta asrlar davrida rivojlanganligi olimlar tomonidan ilgari suriladi.

¹¹ Mori M. Sog‘dularin Orta Asya’daki Faaliyetleri. TTK. Belleten, Osak. – Ankara, 1983. – S. 341-345.

¹² Сагдуллаев А. ва б. Ўрта Осиёда ўрта асрлар савдо-сотик тизими. – Тошкент. Академия, 2012. – Б. 7-10.

¹³ Tomaschek W. Centralasiatische Studien, I. Sogdiana. – Wien, 1877. – P. 78.

¹⁴ Бартольд В.В. Статьи из “Энциклопедии Ислама” / Соч. – Т. II. Ч. 2. – Москва: Наука, 1964. – С. 497.

¹⁵ Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue occidentaux // Сб. Тр. Орх. эксп. – СПб.: 1903. – Вып. 6. – P. 136.

¹⁶ Markwart J. Wehrot und Arang. Untersuchungen zur mythischen und geschichtlichen Landeskunde von Ostiran. – Leiden, 1938. – P. 12; Marquart J. Eranshahr nach der Geographic des Ps. Moses Xorenaci. – Berlin, 1901. – P. 25.

¹⁷ Кастальский Б.Е. Бианайманские оссуарии // Протоколы заседаний и сообщения членов Туркестанского кружка любителей археологии. 1909. – №13. – С. 15-16

¹⁸ Грицина А.А., Мамаджанова С.Д., Мукимов Р.С. Археология, история и архитектура средневековой Уструшаны. – Самарканд, 2013. – С. 19-21.

¹⁹ Гайдукович В.Ф. Работы Фархадской археологической экспедиции в Узбекистане в 1943-1944 гг. // Краткие сообщения института истории материальной культуры. XIV. – Москва, 1947. – С. 116.

²⁰ Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. ... – С. 9-10.

N.N.Negmatovning 1957 yilda nashrdan chiqqan “Ustrushana v drevnosti i rannem srednevekovye” asarida V.V.Bartold va boshqa tadqiqotchilarning ishlari keng tahlil qilingan. Olimning ayniqsa, ikkala mintaqa shahar qoldiqlaridagi turarjoylar va devoriy suratlardagi o‘xshashlikni yagona madaniyat qoldiqlari deya talqin qilishi ilk o‘rta asrlar davriga kelib Sug‘d va Ustrushona aloqalarining rivojlanganligidan dalolat beradi²¹.

1965-1972 yillarda Qalai Qaxqaxa I shahrining arki (qal’asi) hamda me’morchiligi va san’at yodgorliklarida ulkan ahamiyatga ega noyob bo‘lgan Ustrushona shohlari (afshinlar) saroyi ochilgan. Topilgan devoriy suratlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur devoriy suratlar va Afrosiyob devoriy suratlari o‘rtasidagi ranglardagi uyqashlik va kompozison o‘xshashliklar mavjud. Ayniqsa, Bunjikat va Sug‘dning Panjikent shahar devoriy suratlaridagi qurilish uslubi va tasviriy san’at namunalaridagi diniy qiyofalarni chizish bilan bog‘liq uslub qariyb bir xil²².

Sug‘dshunos V.A.Livshits Mug‘ arxivi bo‘yicha izlanishlar olib borish jarayonida Panch va Ustrushonaning o‘zaro munosabatlarini yoritadigan A-9 deb yuritiladigan hujjatda Ustrushan, Shavkat, Buttaman, Parg‘ar kabi joy nomlarining bir qismi Ustrushonaga, bir qismi Panchga tegishli tog‘lik mavzelar ekaniga e’tibor qaratgan²³. Tadqiqotchi 683-708 yillarda Panch hukmdori bo‘lish bilan birga “Bag‘d podshosi, Panch hukmdori” kabi qo‘shaloq unvon bilan ish ko‘rgan Chakin Cho‘r bilga shaxsiga to‘xtab, Ustrushonaga qarashli hudud sifatida qaraladigan Bag‘dni muayyan bir hukmdorlik bo‘lsa, unda *Panchikat* (Panch / Panjikent) uning tarkibidagi hukmdorlik bo‘lgan”, deb yozadi va “agar “Vag‘d (Bag‘d) podshosi”ning mulki Samarqand Sug‘dida yoki Panchga qo‘shni Ustrushonada joylashgan bo‘lishi mumkin” deya ta’kidlaydi²⁴.

Sug‘dshunos M.M.Is’hoqov Sug‘d va Ustrushona hukmdorlari orasidagi aloqalarni A-14 raqamli Mug‘ tog‘i sug‘diy xati asosida yoritishga harakat qilgan. Tadqiqotchi ushbu xatda uchraydigan “Chadirchik zay” iborasiga e’tibor qaratib, bu er Ustrushonaga to‘g‘ri kelganini yozib, Choch hukmdorligiga bo‘ysungan hudud sifatida talqin qilgan. Shuningdek, M.Is’hoqov hujjatdagi Kand, *’stwršnyk* (Istaravshan / Usturshan) kabi atamalarga to‘xtalib, Sug‘d elchisi Fatufarning Chochga kelish va qaytishida Ustrushona hududlaridan bo‘lganiga urg‘u bergan²⁵.

Usturshonashunos olimlardan M.Pardayev ham o‘z tadqiqotlarida Sug‘d va Ustrushona aloqalari me’morchilikda aks etganligi bilan bog‘liq qarashlarini bayon etgan edi²⁶. Bu holat Sug‘d va Ustrushonaning nafaqat ilk o‘rta asrlar balki antik davrlarda ham aloqalar olib borganliklari to‘g‘risidagi xulosalarni

²¹ Негматов Н.Н. Уструшана в древности и раннем средневековье. – Душанбе, 1957. – С. 49-73.

²² Соколовский В.М. Монументальная живопись дворцового комплекса Бунжиката. – Санкт-Петербург, Издательство государственного эрмитажа, 2009. – С. 17.

²³ СДГМ II. – С. 95-96.

²⁴ СДГМ II. – С. 95-96.

²⁵ Исхоқов М.М. Илк ўрта асрларда Суғд, Уструшона ва Чоч муносабатларига доир // “Уструшона Буюк Ипак йўлида, унинг минтақалараро сиёсий – иқтисодий ва маданий муносабатларни ривожлантиришдаги ўрни” мавзусида ўтказилган Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Гулистон, 2016. – Б. 6-8.

²⁶ Пардаев М. Уструшона ва Суғдиёнанинг антик ҳамда илк ўрта асрлардаги моддий-маданий алоқалари / Шахрисабз шаҳрининг жаҳон тарихидаги туган ўрни. Халқаро конференция тезислари. – Тошкент: Фан, 2002. – Б. 108.

kuchaytiradi. Shuningdek, M.Pardayev Sug‘d va Ustrushonadagi Turk xoqonligi davri boshqaruvi bilan bir qator jihatlarga, xususan, har ikkala hududdagi turkiy sulolalarning o‘rni masalasiga to‘xtalgan. Ayniqsa, olimning so‘nggi tadqiqotlarida Sug‘d va Ustrushonaning Buyuk ipak yo‘li doirasida aloqalari, ushbu aloqalarning tarixiy ildizlari antik davrlarga oidligiga doir va ikkala mintaqa qishloq makonlarining o‘xshashligiga e‘tibor qaratgan²⁷. Sug‘dshunos A.Otaxo‘jayev Sug‘d va Ustrushonadagi ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jihatlarni yoritir ekan, bu masalada Sug‘d va Ustrushonada kechgan jarayonlarga to‘xtalib o‘tgan. Tadqiqotchi Ustrushonani o‘troq va ko‘chmanchi mintaqalar o‘rtasida “kontakt makon” deya e‘tirof etadi²⁸. Turkshunos G‘.Boboyorov Sug‘d va Ustrushona ham bir qator voha hukmdorliklari kabi bir necha usullar orqali boshqarilganiga urg‘u bergan²⁹. Sug‘dshunos B.G‘oyibov ikkala hudud aloqalari to‘g‘risida fikr yuritib, Sug‘d hukmdori G‘urakning Ustrushona bilan qarindoshligi doir fikrni ilgari surilganligi ko‘zga tashlanadi³⁰.

Ilk o‘rta asrlar Sug‘d va Ustrushona mafkuraviy hayotiga kirib kelgan qadimgi turklarga aloqador yana bir jihat – xoqonlikning davlat mafkurasida keng o‘rin olgan bo‘ri totemi bilan bog‘liq tasvirlar hisoblanadi. Sug‘dning Kofir-qal‘a yodgorligida bir necha sopol muhrlar topilgan bo‘lib, ular orasida bola emizayotgan bo‘ri tasviri alohida ko‘zga tashlanadigan jihatlarga ega. Kofir-qal‘a topilmasi aynan ushbu rivoyat bilan bog‘liq bo‘lib, shunga o‘xshash syujetlarlar Ustrushona Afshinlari saroyi devoriy rasmlarida, Chochdan topilgan oltin medalon va Panjikentdan topilgan oltin braktiatda uchrashi diqqatga sazovordir³¹.

Xullas, ilk o‘rta asrlar dastlab Qang‘ davlati, so‘ngra Eftaliylar va Turk xoqonligi davlatlari tarkibida bo‘lgan Sug‘d va Ustrushona kabi siyosiy-ma‘muriy birliklar alohida tuzilma sifatida qo‘shni mintaqalar bo‘lib, turli darajadagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, etnomadaniy aloqalarga ega bo‘lishgan. Ushbu aloqalar yozma manbalar va arxeologik materiallarda o‘z aksini topgan bo‘lsa-da, ilmiy adabiyotda ushbu masalaga doir tadqiqotlarda yakuniga etmagan. Amalga oshirilgan ishlarda esa muammoning tub mohiyati aks etmaydi. Shu bois Sug‘d va Ustrushona aloqalari tarixiga oid kompleks tadqiqot yaratilishi dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Ilk o‘rta asrlarda Sug‘d va Ustrushonaning siyosiy aloqalari”** deb nomlangan bo‘lib, uning *“Arablar bosqini arafasidagi siyosiy jarayonlarda Sug‘d va Ustrushona”* nomli faslida bosqin arafasida siyosiy jarayonlar tahlil qilingan.

Arab xalifaligi bosqini arafasida har ikkala konfederatsiyada deyarli o‘xshash siyosiy voqeliklar yuz berganligi anglashiladi. Bu holat asosan Ustrushonada,

²⁷ Пардаев М., Гофуров Ж. Марказий Осиё – Буюк ипак йўли тизимида (қадим ва ўрта асрлар). – Тошкент: LESSON PRESS, 2021. – Б. 8-15, 20-67, 39-71, 266-281.

²⁸ Отахўжаев А. Илк ўрта асрларда Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. – Тошкент: ART-FLEX, 2010. – Б. 8-9.

²⁹ Бобоёров Ф. Илк ўрта асрлар тангаларида Ўзбекистон худудидаги давлатчиликка доир маълумотлар // Ўзбекистон тарихи манбашунослиги масалалари. – Тошкент, 2010. – Б. 18-40.

³⁰ Гойибов Б. Суғд тарихидан лавҳалар. – Самарқанд, СамДУ, 2020. – Б. 58-59.

³¹ Бердимуратов А., Богомолов Г. Тюрки в искусстве раннесредневекового Согда // Согдийский сборник. Новейшие исследования по истории и истории культуры Согда в Узбекистане. Вып. 7 / Под. ред. Ш. Камолитдин. – Berlin: LAP Lambert Academic Publishing, 2020. – С. 66-67.

qisman esa Sug‘dning Ustrushonaga qo‘shni mulklarida bo‘lib o‘tgan siyosiy voqeliklarida ko‘zga tashlanadi. Ular quyidagilar:

1. VII asrning oxirlari – VIII asr boshlarida Ustrushonada yangi turkiy sulola hokimiyat tepasiga keldi³². Deyarli ayni shu yillarda Ustrushonaning janubi-sharqida, Sug‘dning shimoli-sharqiy qismlaridagi Panch hukmdorligida esa turkiy-sug‘diy aralash sulola tashkil topadi³³;

2. “Tan-shu” yilnomasida Sharqiy *Sao* (Ustrushona) boshqaruvchilari VII asrning ilk choragidan boshlab Xitoyga elchilar yubora boshlagan bo‘lib, *Vu-de* boshqaruvi davri – 618-626 yillarda *Kan* (Samarqand) hukmdori bilan birga elchilar yuborib, ular orqali imperator Gaosuzuga o‘zining harbiy xizmatini taklif qilishi va imperator bundan quvongani tilga olinadi³⁴;

3. 693-708 yillarda hukmdorlik qilgan Panch boshqaruvchisining ismi Chakin Cho‘r Bilga bo‘lsa, arab manbalarida esa *shur* (cho‘r) atamasi Panch hukmdorlari ajdodlarining ismi sifatida qayd etiladi³⁵. Xoqonlik boshqaruvida asosan harbiylarga berilgan ushbu unvon Sug‘d boshqaruvida asosan VII asr oxiri – VIII asrning ilk choragida uchray boshlaydi. 750- yillargacha Ustrushonani boshqargan Qora-bo‘g‘raning o‘g‘li Qora-cho‘r VIII asrning 90- yillarigacha Ustrushona hukmdori sifatida boshqaruvda bo‘ladi³⁶. Ya‘ni, Panch va Ustrushona hukmdorlari nafaqat “afshin” unvoniga, balki “cho‘r” unvoniga ham ega bo‘lganliklari qiziqarli holat. Bu ikkitalik unvonning uchrashi tarixda kam uchraydigan holat ekanligini ta‘kidlash lozim;

4. Sug‘dning shimoli-g‘arbi va shimoliy qismlarida o‘rin olgan Ishtixon va Kabudon hukmdorliklari o‘zlariga shimol va shimoli-sharqdagi qo‘shni Ustrushona bilan o‘zaro faol siyosiy aloqalarga kirishadi. Ustrushonada Qora-bo‘g‘ra, Kabudonda *Sudu pulo* (*Satuq?-bo‘g‘ra; 738)³⁷ ismli boshqaruvchilar faoliyati buning isbotidir. Balki ushbu ikki hukmdor aka-uka bo‘lishgandir. Chunki Kabudon, Ishtixon va Ustrushonaning ayni *Sao* nomi ostida keltirilishi zamirida ham ularning yagona hudud bo‘lganligi bilan bog‘liq taxmin ilgari suriladi. Har holda yuqoridagi omil Arab xalifaligi hukmronligi arafasida va bosqin jarayonlarida Sug‘d va Ustrushona anchayin yaqin bo‘lishgan;

5. Ustrushona va Sug‘d (Panch) tangalarida sug‘diy yozuvda *MR‘Y* “afshin” unvoni o‘rin olib³⁸, bu unvon keyinchalik arab-fors manbalarida uchray boshlaydi³⁹. Ya‘ni, Amudaryo – Sirdaryo oralig‘idagi voha hukmdorliklari orasida aynan Ustrushona va Panch kabi chegaradosh mulklar boshqaruvida “afshin” unvoni o‘rin olishi o‘sha davrdagi siyosiy jarayonlar natijasi edi;

³² Алманов К. Фарбий Турк хоқонлиги даврида Уструшона. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Қарши, 2021. – Б. 17-19, 22.

³³ Лившиц В. А. Правители Панча (Согдийцы и турки) // НАА. – Москва, 1979. – №4. – С. 56-69.

³⁴ Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведение о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. – Т. II. – Москва-Ленинград, 1950. – С. 271, 281, 312-313.

³⁵ Отахўжаев А. Суғд шаҳрининг турк хоқими // Шарқшунослик, ТДШИ. – Тошкент, 2001. – №2. – Б. 40-42.

³⁶ Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. – Санкт-Петербург, 2008. – С. 290.

³⁷ Смирнова О. И. Сводный каталог согдийских монет. Бронза. – Москва: Наука, 1981. – С. 425, 428.

³⁸ Бабаяров Г., Кубатин А. К вопросу о монетах Согда с титулом «хатун» // Марказий Осиё халклари тарихи манбашунослиги ва тарихшунослиги масалалари. V Республика конференция материаллари. 5-илмий тўплам. 2-қисм. – Тошкент, 2013. – Б. 95-107.

³⁹ Бартольд В. В. Статьи из “Энциклопедии Ислама” / Сочинения. Т. II. Ч. 2. – М.: Наука, 1964. – С. 497.

6. Aftidan ayrim Ustrushona hukmdorlari VIII asr boshlarida o‘z hududlarini janubga – Sug‘d hukmdorliklariga qarata kengaytira boshlagan ko‘rinadi. Ustrushona hukmdori Qora-bo‘g‘raning Ishtixondagi faoliyati⁴⁰, Istaxriyning “*Ilgari bu rustoq (ya’ni, Bag‘don) Samarqandga o‘lpon to‘lar edi, Afshin davrida esa Ustrushonaga qarashli bo‘ldi*” degan mazmundagi ma’lumotlari⁴¹ bundan darak beradi;

7. VIII – IX asrlar orasida, ayniqsa, 750- yillardan boshlab O‘rta Osiyodagi bir necha hukmdorliklarning boshqaruvchi toifa vakillari Arab xalifaligining markaziy hududlariga olib ketiladi va ular xalifalik qo‘shinlari yetakchilariga aylanadilar. Ustrushonadan Afshin Haydar (vafoti 841 yil), Abu Saj Divdod (vafoti 879 yil), Kabudondan Marzbon al-Turkasfo (840- yillar) faoliyati bunga guvohlik beradi⁴²;

8. V.Tomashekning “Sug‘diyona” nomli tadqiqotida Samarqandning boshqaruvchi sulolasi – Ixshidlarga to‘xtalar ekan, 710-738 yillarda bu erni boshqargan G‘urakning kelib chiqishini Ustrushona bilan bog‘lab, uni Ustrushona afshinlari bilan qarindosh bo‘lgan deb qarashi⁴³ bugungi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Asarda asosan xitoy yilnomalari va arabiy-forsiy tilli manbalar tahlil qilingan bo‘lib, ayni manbalar asosidagi ushbu xulosalar ushbu holatning tarixiy haqiqatga yaqin ekanligidan darak beradi.

Arab xalifaligi istilosi xavfi ostida qolgan Sug‘d hukmdorliklari qatorida Ustrushona ham ttifoqchilar izlash payiga tushgan. Bu vaziyat, aftidan ustrushonaliklar uchungina emas, Panch uchun ham, Choch uchun ham xavfning kuchayishiga olib kelishi mumkin edi. Shu bois bo‘lsa kerak 750- yillargacha nafaqat Choch, Farg‘ona, Isfijob, balki Ustrushona ham hamkorlikda arablar bosqiniga qarshi kurashni davom ettirishadi⁴⁴. Tabariy va Ibn al-Asir Arab xalifaligi noibi Asad ibn Abdulloh al-Kushayrining 737 yilda Xuttalga yurishi mobaynida turk xoqoni boshchiligida arablarga qarshi kurashayotgan ittifoqchi kuchlar orasida Ustrushona hukmdori Xarabug‘ra (Qora-bo‘g‘ra) to‘g‘risida eslatib o‘tishi bu fikrni tasdiqlaydi⁴⁵.

Bobning ikkinchi paragrafi “*Ilk o‘rta asrlarda Sug‘d va Ustrushona aloqalarining numizmatik materiallarda aks etishi*” deb nomlangan bo‘lib, unda mintaqalar o‘rtasidagi aloqalar numizmatik materiallar orqali tahlil qilingan.

Ilmiy adabiyotlar tahlili va internetdagi⁴⁶ sohaga oid maxsus saytlar tahlili natijasidagi ilk o‘rta asrlar Sug‘d va Ustrushona tangalarini o‘zaro taqqoslash natijasida quyidagi o‘xshashlik jihatlarda ko‘zga tashlanadi:

1) *Tangalarning yasash texnikasi, metali, ikonografiya va paleografiyasida yaqinlik*. Ya’ni, bu davr Sug‘d va Ustrushona tangalari misdan yasalib, dumaloq shaklga ega tangalarning hajmi va o‘lchami deyarli bir xil bo‘lgan (2-2,5 sm

⁴⁰ Бичурин Н. Я. Собрание сведений. ... II. – С. 313.

⁴¹ Исхоков М.М. Илк ўрта асрларда Суғд, Уструшона ва Чоч муносабатларига доир. ... – Б. 7.

⁴² Aydınlı O. Semerkant tarihi – fethinden Samanilerin yıkılışına kadar (93 – 389 / 711-999). 2. Basım. – Ankara, 2018. – S. 52.

⁴³ Tomashek W. Central asiatische Studien, I. Sogdiana. – Wien, 1877. – P. 78.

⁴⁴ Смирнова О.И. Очерки из истории Согд. ... – С. 40.

⁴⁵ Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика. ... – С. 289.

⁴⁶ www.zeno.ru.#800; www.zeno.ru.#868; www.zeno.ru.#8689

atrofida). Tangalardan sezilarli bir qismining old tomonida hukmdor boshi tasviri, orqa tomonida esa sulolaviy tamg'a va uning atrofida sug'diy yozuvdagi hukmdor ismi va unvon o'rin olgan;

2) *Tangalarda o'xshash unvonlar uchrashi*. Sug'dning Panch hukmdorligi tangalarida oromiycha *MR'Y* unvoni o'rin olgan bo'lib⁴⁷, bunday holat Ustrushona tangalarining barchasida uchraydi. Tadqiqotchilar *MR'Y* so'zi Ustrushona va Panch boshqaruvida asosiy unvon bo'lgan sug'diycha "afshin"ni ifodalash uchun ishlatilgan, deb qaraydilar⁴⁸;

3) *Tangalardagi sulolaviy belgi – tamg'alarda yaqinlik*. Garchi, to'laqonli bo'lmasa-da, har ikkala hudud tamg'alarida o'zaro ta'sir bordek ko'rinadi. Ayniqsa, Markaziy Sug'dning etakchi hokimligi bo'lmish Samarqand tangalaridagi 𐎧 ⁴⁹ ko'rinishidagi tamg'a⁵⁰ va Ustrushona tangalaridagi 𐎧 (shakllari - 𐎧 , 𐎧) ko'rinishidagi tamg'alar orasida yaqinlik mavjud (solishtirish uchun qarang: 𐎧 , 𐎧 , 𐎧 (Samarqand)⁵¹ - 𐎧 (Ustrushona)).

Qizig'i shundaki, Sug'ddan farqli holda yozma manbalarda uchraydigan Xarabug'ra (Qora-bo'g'ra) (720-738), Xanaxura (738-800), Kavus (800-825), Afshin Haydar (825-840), Hasan (840-860) kabi Ustrushona hukmdorlaridan birortasining ismi tanga-pullarda o'rin olmagan. Ehtimol, Ustrushonaning ikkinchi sulolasi deb hisoblanadigan⁵² ushbu sulola o'zlaridan oldingi hukmdorlarining tanga zarbi an'analarini davom ettirgandirlar.

Sug'd va Ustrushona orasidagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy aloqalarni numizmatik materiallar asosida qarab chiqish shundan darak beradiki, o'zaro qo'shni bo'lgan ushbu tarixiy-geografik o'lkalar bir necha jihatdan mushtarak bo'lgan. Bu ayniqsa Samarqand va Ustrushona, Panch va Ustrushona orasidagi sulolaviy rishtalar mavjud bo'lganligini ko'rsatadigan ramziy belgilar – tamg'alar, unvonlar – *MR'Y* ("afshin"), yagona til va yozuv – sug'diy an'analarda o'z tasdig'ini topadi.

Xullas, ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyoning yirik siyosiy-madaniy ma'muriy tuzilmalari hisoblangan Sug'd va Ustrushona o'rtasidagi siyosiy aloqalar ikkala mintaqaning umumiy dushmanga qarshi hamkorlikda kurash olib borganliklari, tashqi aloqalardagi ittifoqchiligi, qarindoshlik rishtalaridagi aloqalar, chegara hududlaridagi talash hududlar doirasidagi munosabatlar orqali ko'zga tashlanib, bu holatlar Mug' tog'i sug'diy hujjatlari, arabiy tilli manbalar va numizmatik materiallarda o'z aksini topganligi bilan ahamiyatli hisoblanib, bu esa o'sha davr tarixiy jarayonlariga ham yaqin holat ekanligidan darak beradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Sug'd va Ustrushona ijtimoiy-madaniy aloqalari**" deb nomlanadi. Bobning birinchi paragrafi "*Sug'd va Ustrushona*

⁴⁷ G'oyibov B. Sug'diy hukmdorlar shajarasi xususida (Panch misolida) // Ilmiy axborotnoma. Научный вестник. – Samarqand, 2014. – №2 (84). – Б. 11-15.

⁴⁸ Бабаяров Г., Кубатин А. К вопросу об употреблении титула *MR'Y* в Средней Азии в эпоху раннего средневековья // Согдийский сборник. Вып. 2. – Berlin: LAP Lambert Academic Publishing, 2015. – С. 89-92.

⁴⁹ Бобоёров Ф., Фойибов Б., Кубатин А. Илк ўрта аср Самарқанд тангаларида "Турон" топоними Ўзбекистон археологияси. 2015. №2 (11). – Б. 17-25.

⁵⁰ Tangalardagi tamg'alarini chizishda yaqindan yordam bergan sug'dshunoslar G'.Boboyorov va B.G'oyibovga muallif o'z minnatdorchiligini bildiradi – X.N.

⁵¹ Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет ..., – С. 538.

⁵² Алманов Қ. Фарбий Турк хоқонлиги даврида Уструшона: ... – Б. 8, 17-18.

aloqalarining moddiy madaniyat va ma'naviy-mafkurafiy hayotda aks etishi” deb nomlangan bo‘lib, unda mintaqalar o‘rtasidagi ijtimoiy-maishiy va madaniy aloqalar o‘rganilgan.

Ushbu masalada quyidagi asosiy jihatlarni muhim natijalar sifatida ilgari surish mumkin:

- *Til birligi* – ikkala mintaqada ham aholining ko‘pchilik qismi sug‘diy tilda so‘zlashganlar. Har ikkala hududda so‘zlashuv va rasmiy til sug‘diycha bo‘lib, ish yuritish, yozishmalar, tanga zarbi ushbu tilda yuritilgan⁵³;

- *E’tiqod birligi* – zardushtiylik dinining ustuvor din sifatida bo‘lishi. Har ikkala hududda zardushtiylar ibodatxonalari bilan birga tog‘lardagi g‘orlar ham muqaddas topinish maskanlari kabi e’tiqod markazlari bo‘lgan⁵⁴;

- *Shaharsozlikda umumiylik* – yirik aholi maskanlari va shaharlar tuzilishi, me’moriy qiyofasidagi o‘xshashlik. Har ikkala hududda shaharlar ark, shahriston va raboddan tashkil topgan.

- *Boshqaruvdagi o‘xshashlik* – siyosiy-ma’muriy boshqaruv usullar deyarli bir xil. Sug‘d va Ustrushona mintaqaning bir qator hukmdorliklardan farqli holda rustoqlarga bo‘linib boshqarilganligi ko‘zga tashlanadi.

Sug‘d va Ustrushona madaniyatidagi nisbatan kuchliroq ta’sir ko‘rsatgan yana bir davr sifatida Turk xoqonligi davrini olish mumkin. Bu davrda har ikkala vohada sug‘diylar va turkiylar orasidagi etnomadaniy jarayonlar faol kechdi. Jumladan, Afrosiyob devoriy rasmlaridagi personajlar etnik mansubligi masalasida dastlabki tadqiqotlardayoq mahalliy sug‘diy va turkiy etnik unsurlik ustuvorlik qilishi haqidagi qarashlar ilgari surilgan⁵⁵. Sug‘d va Ustrushona tasviriy san’atida turkiylar, aniqrog‘i turkiy boshqaruvchilar tasvirlari sezilarli o‘rin egallashi, bunday tasvirlarda biroz qisqirgan ko‘zli, soqolsiz dumaloq yuzli, uzun yoki o‘rilgan sochli insonlar yetakchilik qilishi asosida o‘z tasdig‘iga ega. Ushbu qarashlarni Samarqand va Ustrushona bilan bog‘liq quyidagi tasvirlar ham yaqqol tasdiqlaydi.

Panjikent devoriy rasmlarida ham ko‘proq sug‘diy va turkiy etnoslar vakillari aks ettirilgan bo‘lib, quyida ko‘riladiganidek ular ham Afrosiyob va Shahrison devoriy rasmlaridagi turkiy amaldorlar kabi boshqaruvchi toifa vakili sifatida tasvirlangan. Bu holat Ustrushonaning tarixiy markazi bo‘lgan Bunjikatdagi devoriy suratlarda ham ko‘zga tashlanadi⁵⁶. Shuningdek, ular bilan birga uzun mahalliy aholini eslatuvchi quyuk soqolli, cho‘ziq yuzli personaj ham o‘rin olganligi diqqatni o‘ziga tortadi.

Sug‘d va Ustrushona moddiy madaniyatida o‘zaro yaqinlik va ularga qadimgi turk ta’siri – qadimgi shahar qoldiqlaridan topilgan kamar va shunga o‘xshash moddiy ashyolarda o‘z ifodasini topgan. Xususan, har xil idishlar sirtiga o‘q-yoy tasvirini tushirish, idish sopiga turli hayvon tasvirlarini chizish kabi usullar anchagina uchraydi. Shuningdek, sopol sirtiga qadimgi turklarga xos qiyofadagi kishilar tasvirining bosma tarzda tushirish kabi holatlarning uchrashi ham diqqatga

⁵³ Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. ... – С. 187.

⁵⁴ Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений. ... II. – С. 312-313.

⁵⁵ Альбаум Л. И. Живопись Афрасиаба. – Ташкент: Фан, 1975. – С. 36-38.

⁵⁶ Соколовский В.М. Монументальная живопись дворцового комплекса Бунжиката. – Санкт-Петербург: Издательство Государственного Эрмитажа, 2009. – С. 72-94.

sazovordir⁵⁷. Buni yaqin yillarda Sug‘dning ilk o‘rta asrlardagi muhim strategik markazlaridan biri – Kofir-qal‘adan topilgan bir necha sopol parchasida shunga o‘xshash holat uchrab, yonma-yon turgan erkak va ayol tasviri qadimgi turklarni eslatadi⁵⁸.

Kofir-qal‘a yog‘och lavhasidagi markaziy perzonaj – Nana ilohasi tasviri ilk o‘rta asrlar tanga-pul zarbi va sug‘diy koroplastikada ham o‘z aksini topgan. Qizig‘i shundaki, tarixiy Sug‘d va Ustrushona oralig‘ida joylashgan Mingtepa yodgorligi (Bulung‘ur – G‘allaorol tumanlari oralig‘i) va unga yaqin hududlardan topilayotgan sug‘diy-turkiy tangalarning old tomonida qo‘shaloq tasvir – hukmdor va malika tasvirlari o‘rin olgan bo‘lib, tanganing orqa tomonida sug‘diy yozuvda “Nana-xotun” so‘zlari uchraydi⁵⁹.

Sug‘d va Ustrushona madaniyatida, xususan, ish yuritish, yozishmalar, tanga zarbidagi umumiylik bo‘lib, Panjikent hujjatlari, Afrosiyob, Yerqo‘rg‘on epigrafik yodgorliklari, Chilhujra (Ustrushona)dan topilgan sug‘diy hujjatlar⁶⁰ bitta etnomadaniy muhitga mansubdir. Buni Chilhujradan topilgan hujjatlarning ham yozuv qurollaridagi o‘xshashlik, ham husnixatdagi o‘ta yaqinlik tasdiqlaydi. Bundan ko‘rinadiki, Sug‘d va Ustrushona yozuv madaniyatida o‘zaro bir-biri bilan yaqin munosabatda bo‘lgan.

Ilk antik davrdan boshlab, Ustrushonada shahar madaniyati ravnaqi boshlangan. Bu davr shaharlari Ustrushonaning sharqiy qismida Farg‘ona ta‘sirida rivojlangan bo‘lsa (Nurtepa madaniyati), g‘arbiy qismida Markaziy Sug‘d ta‘sirida taraqqiy etgan (Qaliyatepa). O‘lkada shaharlarga qaraganda qishloq makonlariga, xususan, aksariyat holatlarda mudofaa devorlari bilan o‘ralgan qal‘a, qo‘rg‘on, rabot qurilishiga katta ahamiyat berilgan. Shu sababli, o‘rta asr mualliflari Ustrushonani “400 qal‘a – rabotli mamlakat” deb atashgan⁶¹. Bu kabi holatni biz xitoy yilnomalarida Janubiy Sug‘d shaharlariga keltirilgan ta‘rifda ham ko‘rishimiz mumkin⁶².

Ustrushona markazi bo‘lgan Bunjikat va Sug‘dning Panjikent yodgorligini o‘rganish davomida bu yerdan juda ham ko‘plab devoriy suratlar, terrakota haykalchalari, haykallar, yog‘och o‘ymakorligi namunalari topilgan bo‘lib, ularda diniy-ilohiy, afsonaviy, hayotiy, harbiy mavzular aks etganligi ko‘zga tashlanadi⁶³. Ularda Sug‘d va Ustrushona aholisining ma‘naviy va madaniy hayotini juda ham aniq aks ettirganligi bilan bu erdagi yashagan aholining diniy-ilohiy tushunchalarini bir tomondan antik dunyoda tarqalgan juda ko‘plab tasavvurlar bilan bog‘liqligini, ya‘ni,

⁵⁷ Лебедева Т.И. Селская округа и её роль в формировании раннесредневекового Самарканда (по материалам селской округа Самарканда). Автореф. дисс. к.и.н. – Ташкент, 1994. – С. 28

⁵⁸ Babayar G. Semerkant‘ta bulunan “Kağan” ve “Hatun” unvanlı Eski Türk Sikke ve Mühürleri Üzerine // GTTAD (Genel Türk Tarihi Araştırmaları Dergisi), Vol. 1, Issue 2, July 2019. – Ankara, 2019. – S. 177-202.

⁵⁹ Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. Бронза. – Москва: Наука, 1981. – С. 423-428.

⁶⁰ Лившиц В.А. Согдийские документы из замка Чильхуждра // Scripta Gregoriana. Сборник в честь семидесятилетия академика Г.М. Бонгард-Левина. – Москва, 2003. – С. 77-88.

⁶¹ Пардаев М.Х., Фафуров Ж.И. Уструшонанинг ilk ўрта аср кишлок маконлари (ёзма ва археологик манбалар асосида). – Тошкент, 2016. – Б. 39.

